

“PILLA RAQSINING JOZIBADORLIGI”

**Abduzohidova Dildora Abdunabi qizi**

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San‘atshunoslik” yo‘nalishi 3 bosqich talabasi.*

**Annatsiya:** Mukkarama Turg‘unboyevaning merosiy raqslaridan biri “Pilla” raqsining tarixi, uning liboslari va sujeti yoritilib o‘tilgan.

«ОЧАРОВАНИЕ ТАНЦА КОКОНА»

Дочь Абдузохидовой Дилдора Абдунаби, студентка 3 курса Государственной академии хореографии Узбекистана, факультет «Искусствоведение».

**Аннотация:** Освещена история танца «Пилла», одного из традиционных танцев Муккарамы Тургунбаевой, его костюмы и тематика.

"THE CHARM OF THE COCOON DANCE"

Daughter of **Abduzohidova Dildora Abdunabi**, 3rd stage student of the State Choreography Academy of Uzbekistan, "Art Studies" department.

**Annotation:** *Osveshchena historical dance "Pilla", odnogo iz traditsionnyx tantsev Mukkaramy Turgunbaevoy, ego costume and theme.*

**Kalit so‘zi:** *Tamaraxonim, raqqosa, pilla, ijro, ansanbil, baletmeystr, bahor, san‘at, o‘zbek.*

**Ключевые слова:** *Тамаракхоним, танцовщик, кокон, спектакль, ансамбль, балетмейстер, весна, искусство, узбек.*

**Key words:** *Tamarakhonim, dancer, cocoon, performance, ensemble, ballet master, spring, art, Uzbek.*

San‘at har bir insonning his tuyg‘u va ichki kechinmalarini estetik ravishda o‘z jismida tuyub ko‘rishi, his qilishidir. O‘zbek raqsining har bir harakati alohida san‘at sevarlarni qalbidan joy egallaydi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsam, raqs san‘atining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Mukarrama Turg‘unboyeva ijrosidagi “Pilla” raqsi hali hanuz raqqosalar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Quyidagi raqs jonli doira jo‘rligida 1952-yil ustoz raqqosa “Bahor” raqs ansambilining bosh baletmeystri bo‘lgan Mukarrama Turg‘unboyeva yangi ko‘rinishda qayta sahnalashtirgan. Vaqt o‘tishi bilan “Bahor” raqs ansambili uchun ommaviy raqslar qatoriga qo‘shgan. Raqsning syujetini ta‘riflaydigan bo‘lsam, o‘zbek ayolining ipak qurtini parvarish qilib boqib, uni pilla

holatiga kelishi va dastgohda ip yigirish jarayoni hamda ushbu tayyorlangan iplar bilan oq matoga ya'ni qiyiqchaga naqshlar tikib bezatishga bo'lgan mehrli mehnatga yo'g'rilgan ijod jarayoni namoyon bo'lgan.

Asosan mazkur raqs bitta raqqosa tomonidan ijro etilgan. Ya'niki, yakka holda doira jo'rligida. Keyinchalik boshqa ansambillar tomonidan ham ommaviy raqs sifatida ijro etila boshlagan. "Pilla" raqsi ijrosida raqqosaning liboslari haqida aytib o'tadigan bo'lsam, juda ham nafis va bejirim matolar bilan tikilgan. Raqqosaning boshida to'rtburchak iroqi do'ppi, quloqlarida aksessuarlardan qo'lda yasalgan o'zbek milliy ziragi, egnidagi ko'ylagi keng va uzun yengli, krepjorjetdan va oq harir yoki krebdeshin matodan. Ko'ylakni ustidan qizil, qora duxobali sariq yaltiroq zar iplar bilan naqishlar tikilgan yengsiz, uzunligi belgacha bo'lgan nimcha. Nimchaning ustida yani ko'ksida o'zbek raqqosalarining o'zbek milliyligiga xos bo'lgan aksessuarlaridan zebigardon yoki bo'yniga munchoq. Raqqosaning ikkala qo'llarida ham bilakuzuk taqilgan holatda bo'lishi darkor.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra jiyakli xon atlasdan yoki lizik atlasdan oq lozim ham kiyilgan. Oyoq kiymi esa poshnasi uncha uzun bo'lmagan oq rangli, o'rtacha balandlikdagi tufli bo'ladi. Raqqosada yana ipak matoli qiyiqcha ham bo'ladi. Uni bezatib raqsining so'ngida doirachining beliga bo'g'laydi, go'yoki sovg'a tariqasida iliq his tuyg'ularini qiyiqcha orqali ifoda etadi. "Pilla" raqsida raqqosalarning harakatlari juda aniq va nafis ijro etilishi, jonli musiqaning ritimlariga mosu-xos ravishda ijro qilinib, tomoshabinlarga estetik zavq bag'ishlashi zarur.

1957-yil "Bahor" davlat raqs ansambili tashkil qilingan, shu yilning o'zidan boshlab o'zbek raqsini dovrug'i yanada dunyoga keng yoyilishiga beminnat hissa qo'shgan Mukarrama Turg'unboyeva ushbu ansambilda bosh baletmestr sifatida rahbarlik qila boshlagan. Mukarrama Turg'unboyevaning mualliflik raqslari bir olam, merosiy raqslari esa behisobdir. Tamaraxonim bilan bir davrada suhbat qilgan, zamondoshi bo'lgan raqqosa ijodkor Mukarrama Turg'unboyeva "Pilla" raqsini ustozining ijrosidan farqli o'laroq ijro etgan. Saqlanib qolingan oltin fond parchalaridan ko'rganlarimdan shuni aytib o'tolamanki, Tamaraxonimning ijrosidagi "Pilla" raqsida judayam jo'shqinlikni ko'ramiz. Harakatlarda, yuz ifodasida shiddat ila raqsn nazokat bilan ijro etgan. Mukarrama Turg'unboyevaning "Pilla" raqsidagi ijrosining Tamaraxonimnikidan ajralib turadigan jihatlari shundan iboratki: nafislik, ohistalik va yana o'ta noziklik bilan ijro etilgan. Yuzidagi nim tabassum, harakatlardagi ohistalik raqsga yanada joziba ulashgan. Hozirgi kunga kelib yosh raqqosalar ijrosidagi "Pilla" raqsi ikkala ustoznikidan to'laqonli farqlanmoqda. Sababi yosh raqqosalarning ijrosida pilla qurtini boqish davridan boshlab, to ipga aylanishi holatigacha bo'ladigan jarayon har bir raqqosani ichki kechinmalarida unchalik his qilinmaganligi va shu bilan birgalikda ushbu ruhiyat "Pilla" raqsida butunlay aks ettira olmayotganligidan dalolat beradi. Umuman olganda merosiy raqslar sirasiga kiruvchi "Pilla", "Munojot", "Tanovar", "Rohat", "Paxta", "Katta o'yin" va yana bir qancha merosiy raqslarning

usullarini, harakatlarini malakali pedagoglar tomonidan o'rgatilayotganida o'zgartirilmasdan, yangiliklar qo'shilmasdan o'rgatilishi hamda, raqqosalar tomonidan ham hech qanday o'zgartirishlar qo'shilmasligi darkordir. Sababi, yillar o'tgani sayin zamonaviylashib borayotgan shiddatli davrda har bir merosiy raqslarga o'zgartirish kiritilaversa o'zbek milliy merosiy raqslaridagi jozibalar yo'qolib boraveradi mening nazarimda. Shu sababdan qanday bo'lsa shundayligicha ustozalardan o'rganib iloji boricha raqs ijrosida xato qilmaslik lozim.

O'zbek milliy raqs san'ati dovrug'i hozirgi kunga kelib butun jahonga yoyilgan. Ulug' ustozlarimiz bo'lmish Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov kabi bir qancha ustozlarimizning say harakatlari natijasi bilan o'zbek milliy raqs san'ati mana shunday yuksak darajaga ko'tarilgan. Zero, ustozlarimizning mashaqqatli va havas qilsa arziydigan ulug'vor va sharafligi kasbi, iste'dodlari, yaratgan asarlari oldida biz yoshlar ilhomlanib bosgan izlaridan yurib faxr tuyg'usini tuyamiz.